



QISHLOQ XO'JALIGI VA VETERINARIYA SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART AGRONOM



“Agronom” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Qishloq xo‘jaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Agronom

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0123



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Bog'dorchilik bo'yicha texnik-agronom", "Agronom (o'rta malakali)", "Dorivor o'simliklar bo'yicha agronom", "Kartoshkachilik bo'yicha agronom", "Urug'chilik bo'yicha agronom", "O'simliklarni himoya qilish bo'yicha agronom", "Dala ekinlarini yetishtirish bo'yicha texnik-agronom" va "Suv tejevchi texnologiyalar agronomi" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish

muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-noyabrdagi "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-877-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-85-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-205-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi "2023-yilda Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-113-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Agronom
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash, barqaror qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlash orqali oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo'shish
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>A seksiya Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</p> <p>01 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish</p> <p>01.1 Mavsumiy ekinlar yetishtirish</p> <p>01.11 Donli ekinlar (sholidan tashqari), dukkaklilar va moyli ekinlar urug'ini yetishtirish</p> <p>01.11.1 Donli ekinlar (sholidan tashqari) yetishtirish</p> <p>01.11.2 Dukkakli ekinlar yetishtirish</p> <p>01.11.3 Moyli ekinlar va ularning urug'ini yetishtirish</p> <p>01.12 Sholi yetishtirish</p> <p>01.12.0 Sholi yetishtirish</p> <p>01.13 Sabzavotlar va poliz ekinlari, ildizmevali ekinlar yetishtirish</p> <p>01.13.1 Sabzavotlar yetishtirish</p> <p>01.13.2 Poliz ekinlari yetishtirish</p> <p>01.13.3 Kraxmal va inulinga boy ildizmevali ekinlar va ularning urug'larini yetishtirish</p> <p>01.16 Tolali yigiriluvchi ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.16.1 Paxta yetishtirish</p> <p>01.16.2 Zig'ir yetishtirish</p> <p>01.16.9 Boshqa yigiriluvchi (tolali) ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.19 Boshqa mavsumiy ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.19.1 Yem-xashak ekinlari va ularning urug'larini yetishtirish</p> <p>01.19.2 Gullar va ularning urug'larini yetishtirish</p> <p>01.19.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan ko'p yillik bo'lmagan ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.2 Ko'p yillik ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.21 Uzum yetishtirish</p> <p>01.21.0 Uzum yetishtirish</p> <p>01.22 Tropik va subtropik mevalar yetishtirish</p> <p>01.22.0 Tropik va subtropik mevalar yetishtirish</p> <p>01.23 Sitrus mevalar yetishtirish</p> <p>01.23.0 Sitrus mevalar yetishtirish</p> <p>01.24 Urug'li va danakli mevalar yetishtirish</p> <p>01.24.0 Urug'li va danakli mevalar yetishtirish</p> <p>01.25 Boshqa daraxt va butalarda o'sadigan mevalar hamda yong'oq turlarini yetishtirish</p> <p>01.25.0 Boshqa daraxt va butalarda o'sadigan mevalar hamda yong'oq turlarini yetishtirish</p> <p>01.26 Moyli mevalar yetishtirish</p> <p>01.26.0 Moyli mevalar yetishtirish</p>

		<p>01.28 Ziravorlar, aromatik, dorivor va farmatsevtikada ishlatiladigan ekinlarini yetishtirish</p> <p>01.28.0 Ziravorlar, aromatik, dorivor va farmatsevtikada ishlatiladigan ekinlarini yetishtirish</p> <p>01.29 Boshqa ko'p yillik ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.29.0 Boshqa ko'p yillik ekinlarni yetishtirish</p> <p>01.3 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish</p> <p>01.30 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish</p> <p>01.30.0 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish.</p> <p>01.6 Qishloq xo'jalik sohasidagi yordamchi faoliyat turlari</p> <p>01.61 Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari</p> <p>01.61.2 O'simliklarni kasallik va zararkunanda hashoratlardan, shuningdek kemiruvchilardan himoya qilish</p> <p>01.61.9 Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko'rsatish</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni maqbullashtirish, ekin hosildorligini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31421002 Agronom (o'rta malakali)	5
		31421003 Bog'dorchilik bo'yicha texnik-agronom	5
		31421005 Dala ekinlarini yetishtirish bo'yicha texnik-agronom	5
		31421006 Dorivor o'simliklar bo'yicha agronom	5
		31421007 Kartoshkachilik bo'yicha agronom	5
		31421010 O'simliklarni himoya qilish bo'yicha agronom	5
		31421013 Urug'chilik bo'yicha agronom	5
		31421 Suv tejevchi texnologiyalar agronomi	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	31421002 Agronom (o'rta malakali)	A1.5	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish	A1.01.5	Ekinlarni ekish va parvarishlash bo'yicha texnologik jarayonlarni rejalashtirish va joriy etish
				A1.02.5	Ekinlarni parvarishlash jarayonini nazorat qilish
		A2.5	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini ta'minlash va hosildorlikni oshirish	A2.01.5	Hosil sifati va miqdorini monitoring qilish va baholash
				A2.02.5	Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va tajriba-sinov ishlarini olib borish
2	31421003 Bog'dorchilik bo'yicha texnik-agronom	B1.5	Meva va rezavor meva o'simliklarini parvarishlash, oziqlantirish	B1.01.5	Meva va rezavor meva o'simliklarini parvarishlash
				B1.02.5	Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirish
				B1.03.5	Meva va rezavor meva bog'larining hosildorligi hisobini yuritish
		B2.5	Meva va rezavor mevalarni ko'paytirish	B2.01.5	Meva va rezavor mevalarni tur va navlarini ko'paytirish
				B2.02.5	Meva va rezavor mevalarni navlarini yaxshilash
		B3.5	Meva va rezavor mevalarni rivojlanishiga qarab saralash	B3.01.5	Meva va rezavor mevalarining o'sish va rivojlanish hisobini yuritish, mahsuldorligini oshirish
				B3.02.5	Meva va rezavor meva mahsulotlarini saralash
		B4.5	Meva va rezavor mevalarni payvandlash va nazorat qilish	B4.01.5	Payvandlash muddati kelgan ko'chatlarni aniqlash va nazorat qilish
				B4.02.5	Meva va rezavor meva ko'chatlarini payvandlash
		3	31421005 Dala ekinlarini yetishtirish bo'yicha texnik-agronom	D1.5	Dala ekinlarini yetishtirish
D1.02.5	Vegetatsiya davomida o'simliklarning rivojlanish jarayonini nazorat qilish				
D2.5	Urug' ekish			D2.01.5	Yerni ekishga tayyorlash
				D2.02.5	Urug'ni ekishga tayyorlash
				D2.03.5	Urug'ni ekish

		D3.5	Ekinlarni parvarishlash	D3.01.5	Qatqaloqqa qarshi kurash		
				D3.02.5	Yaganalash		
				D3.03.5	Qator oralariga ishlov berish		
				D3.04.5	Ekinlarni o'g'itlar bilan oziqlantirish		
				D3.05.5	Ekinlarni sug'orish		
				D3.06.5	Stimulyatorlarni qo'llash		
				D3.07.5	Dala ekinlarini kasallik va zararkunandalardan himoya qilish		
		D4.5	Hosilni yig'ish	D4.01.5	Dala ekinlari hosilini yig'ishga tayyorgarlik ko'rish va yig'ish		
		D5.5	Kuzgi-qishki tadbirlarni amalga oshirish	D5.01.5	Kuzgi shudgor ostiga mineral va organik o'g'itlarni qo'llash		
				D5.02.5	Kuzgi shudgorlash		
D5.03.5	Sho'r yuvish, yaxob berish, ariq va zovurlarni tozalash						
4	31421006 Dorivor o'simliklar bo'yicha agronom	E1.5	Dorivor o'simlik yetishtirish asoslarini ishlab chiqish	E1.01.5	Madaniy va yovvoyi xolda o'suvchi dorivor o'simliklar, ularning bioekologiyasi, kimyoviy tarkibi va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini ishlab chiqish		
				E1.02.5	Dorivor o'simliklarni sanoat miqyosida yetishtirish asoslarini ishlab chiqish		
		E2.5	Dorivor o'simliklarni yetishtirish	E2.01.5	Dorivor o'simliklar urug'chiligi, ko'chatchiligi, introduksiyasi va yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish		
				E2.02.5	Dorivor o'simliklar xom ashyolarini tayyorlash, quritish va saqlash hamda dastlabki qayta ishlash		
		5	31421007 Kartoshkachilik bo'yicha agronom	F1.5	Yuqori sifatli kartoshka yetishtirish	F1.01.5	Sifatli urug' tanlash va sinovdan o'tkazish
						F1.02.5	Agrotexnologik rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish
F2.5	Kartoshka ekinlarini monitoring va himoya qilish			F2.01.5	Raqamli monitoring va diagnostika usullaridan foydalanish		
				F2.02.5	Kartoshka ekinlarini zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish		
6	31421010 O'simliklarni himoya qilish bo'yicha agronom	G1.5	O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilish	G1.01.5	Qishloq xo'jaligi ekinlaridagi zararkunandalarini aniqlash		
				G1.02.5	O'simliklarda zararkunandalarga qarshi kurashish choralarini olib borish		
		G2.5	O'simliklarni kasalliklardan himoya qilish	G2.01.5	Qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklarini aniqlash		
				G2.02.5	O'simliklarda kasalliklarga qarshi kurashish choralarini olib borish		

7	31421013 Urug'chilik bo'yicha agronom	H1.5	Sifatli urug'larni tanlash va sinovdan o'tkazish	H1.01.5	Urug' sifatini baholash va tekshirish
				H1.02.5	Urug'larni dala va laboratoriya sinovlaridan o'tkazish
		H2.5	Urug'larni saqlash va ekishga tayyorlash	H2.01.5	Urug' saqlash sharoitlarini tashkil qilish
				H2.02.5	Urug'larni ekishga tayyorlash va yetkazish
8	31421 Suv tejavchi texnologiyalar agronomi	K1.5	Ekinlarni sug'orishning texnologiyalarini ishlab chiqish	K1.01.5	Ekinlarni suvga bo'lgan talabini o'rganish
				K1.02.5	Ekinlarni suvga bo'lgan talabidan kelib chiqib sug'orishning maqbul turini tanlash
		K2.5	Ekinlarni sug'orishning zamonaviy texnologiyalarini joriy qilish	K2.01.5	Zamonaviy suv tejavchi sug'orish tizimini joriy qilish
				K2.02.5	Zamonaviy suv tejavchi sug'orish tizimidan foydalanish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Agronom (oʻrta malakali)	
Mashgʻulot nomining kodi:	31421	
TMR boʻyicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar:	Qishloq xoʻjaligi, agronomiya, tuproqshunoslik yoki oʻsimlikshunoslik sohasida kamida 1 yillik umumiy ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar:	<p>– ochiq havoda (dalalarda, issiqxonalarda) va baʼzan qurgʻoqchil yoki ogʻir iqlim sharoitlarida ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi;</p> <p>– resurslardan oqilona foydalanish;</p> <p>– stressga chidamlilik va moslashuvchanlik;</p> <p>– tashabbuskorlik va natijaga yoʻnaltirilganlik;</p> <p>– jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish</p>	
Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar:	oʻrta maxsus professional taʼlim	
Norasmiy va informal taʼlim bilan bogʻliqligi:	boshlangʻich professional taʼlim yoki oʻrta professional taʼlim + norasmiy (informal) taʼlim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR boʻyicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	Bogʻdorchilik boʻyicha texnik-agronom
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5- Qishloq xoʻjaligi ekinlarini yetishtirish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish	A1.01.5- Ekinlarni ekish va parvarishlash boʻyicha texnologik jarayonlarni rejalashtirish va joriy etish	Oʻqitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tuproqning unumdorligini tahlil qilish va ekinlarni joylashtirish rejasini ishlab chiqish
		2. Ekish uchun qulay muddatlar va urugʻ sifatini aniqlash
		3. Oʻgʻitlash va sugʻorish rejalarini ishlab chiqish
		Koʻnikmalar:
		Tuproq tahlilini oʻtkazish
		Agrotexnika usullarini qoʻllash va ekish texnologiyasini tanlash
		Oʻgʻitlar va sugʻorish tizimlaridan foydalanish
		Texnologik jarayonlarni hujjatlashtirish va monitoring qilish
Ekish jarayonida zamonaviy agrotexnologiyalardan samarali foydalanish		
Ish jarayonlarida resurslarni tejash		

		Bilimlar:
		Tuproqshunoslik asoslari
Qishloq xo'jaligi ekinlarining biologik xususiyatlari va ekish texnologiyalari		
Tuproq unumdorligini baholash usullar		
O'g'itlarning kimyoviy tarkibi va ularning ekinlarga ta'siri		
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirish va hujjatlashtirish qoidalari		
Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari va ularning ishlash tamoyillari		
Ekologik xavfsizlik va qishloq xo'jaligida resurslarni boshqarish asoslari		
A1.02.5- Ekinlarni parvarishlash jarayonini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:	
	1. Sug'orish va o'g'itlash jadvallarini nazorat qilish	
	2. Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash uchun ekinlarning holatini muntazam monitoring qilish	
	3. Agrotexnik choralarni amalga oshirish	
	Ko'nikmalar:	
	Sug'orish va o'g'itlash tizimlarini boshqarish	
	Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish	
	Agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish va ularni amalga oshirish	
	Monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish va hujjatlashtirish	
	Zamonaviy monitoring vositalaridan foydalanish	
	Jamoa bilan samarali hamkorlik qilish va ish jarayonlarini muvofiqlashtirish	
	Bilimlar:	
	Sug'orish va o'g'itlashning agronomik asoslari va texnologiyalari	
	Ekinlar kasalliklari va zararkunandalar biologiyasi, turlari va kurash usullari	
	Agrotexnik tadbirlarning ekin sifati va hosildorlikka ta'siri	
	Qishloq xo'jaligi jarayonlarini hujjatlashtirish va hisobot tuzish qoidalari	
	Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari	
Ekologik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnologik jarayonlarning to'g'ri bajarilishi uchun mas'uliyat va qarorlar qabul qilishda mustaqillik	

A2.5- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini ta'minlash va hosildorlikni oshirish	A2.01.5- Hosil sifati va miqdorini monitoring qilish va baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Hosil namunalarini yig'ish va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish
		2. Hosildorlikni baholash uchun dalada o'lchovlar o'tkazish
		3. Hosilning sifati va miqdorini hujjatlashtirish, hisobotlar tayyorlash
		4. Hosil sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish
		Ko'nikmalar:
		Laboratoriya tahlillari usullarini qo'llash va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash
		Hosildorlikni o'lchash va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish
		Monitoring ma'lumotlarini hujjatlashtirish va hisobot shakllantirish
		Hosil sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash
	Zamonaviy monitoring texnologiyalaridan foydalanish	
	Hosildorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish	
	Bilimlar:	
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat standartlari va tahlil usullari	
	Hosildorlikni baholash metodikasi va statistik tahlil asoslari	
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sertifikatlash va hujjatlashtirish qoidalari	
	Ekinlarning kasalliklari, zararkunandalar va agrotexnik omillarning ta'siri	
	Zamonaviy qishloq xo'jaligi monitoringi texnologiyalari	
	Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlik asoslari	
	A2.02.5-Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va tajriba- sinov ishlarini olib borish	Mehnat harakatlari:
1. Yangi ekin navlari va agrotexnologiyalarni sinov maydonchalarida sinash		
2. Tajriba natijalarini tahlil qilish va ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish		
3. Zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni sinovdan o'tkazish		
4. Tajriba-sinov jarayonlarini hujjatlashtirish va hisobotlar tayyorlash		
Ko'nikmalar:		
Tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va o'tkazish		
Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va sharhlash		
Zamonaviy qishloq xo'jaligi uskunalaridan foydalanish va ularni sozlash		

		Tajriba ma'lumotlarini hujjatlashtirish va hisobot shakllantirish
		Innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish
		Xalqaro tajribalar va ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish
		Bilimlar:
		Statistik tahlil usullari va qishloq xo'jaligi tajribalarini loyihalash asoslari
		Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari
		Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish tizimlari
		Qishloq xo'jaligi tajribalarini hujjatlashtirish va hisobot tuzish tartibi
		Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish va baholash usullari
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tajriba-sinov ishlarining sifati va natijalarining ishonchliligi uchun to'liq mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		Tuproqning kimyoviy va fizik xususiyatlarini aniqlash uchun portativ va statsionar tahlil asboblardan foydalanish

Kasbning nomi:	Bog'dorchilik bo'yicha texnik-agronom	
Mashg'ulot nomining kodi:	31421	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Qishloq xo'jaligi, agronomiya, tuproqshunoslik yoki o'simlikshunoslik sohasida kamida 1 yillik umumiy ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> – ochiq havoda (dalalarda, issiqxonalarda) va ba'zan qurg'oqchil yoki og'ir iqlim sharoitlarida ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; – resurslardan oqilona foydalanish; – stressga chidamlilik va moslashuvchanlik; – tashabbuskorlik va natijaga yo'naltirilganlik; – jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish 	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	2	Bog'bon
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5- Meva va rezavor meva o'simliklarini parvarishlash, oziqlantirish	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Meva va rezavor meva o'simliklarini parvarishlash	
	2. Meva va rezavor mevalarni saqlanayotgan xonalarda gigiyena talablarini ta'minlash	
	3. Meva va rezavor meva o'simliklarini kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish	
	4. Meva va rezavor meva o'simliklarini mexanizatsiyalashgan tizimlarini nazorat etish	
	Ko'nikmalar:	
	Meva va rezavor meva o'simliklarini belgilangan tartib qoidalarga muvofiq parvarishlash	
	Gigiyena talablariga qat'iy amal qilish va mikroiklimni tahlil qilish	
	Ko'chat yetishtirish va parvarishlashning mexanizatsiyalashgan tizimlari bilan ishlash	
Mevachilikda foydalaniladigan anjomlar bilan samarali ishlash		

		<p>Bilimlar:</p> <p>Meva va rezavor meva o'simliklarini parvarishlashning qoidalari</p> <p>Meva va rezavor mevalar saqlanayotgan xonalarga qo'yiladigan sanitariya va gigiyena talablari</p> <p>Ko'chat yetishtirish va parvarishlashning mexanizatsiyalashgan tizimlari</p> <p>Bog'dorchilikda foydalaniladigan anjomlar va uskunalardan foydalanish talablari</p> <p>Meva va rezavor mevalarni tozalash va yuvish tartibi</p> <p>Bog'dorchilik texnikalari bilan ishlashda texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari</p>
	B1.02.5- Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishda o'g'itlash hisobini yuritish</p> <p>2. Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishda organik o'g'it sifatini baholash</p> <p>3. Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishda maxsus texnika va uskunalarda foydalanish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Meva va rezavor meva navlarni parvarishlashda, ularni yoshiga, naviga va mahsuldorligidan kelib chiqadigan texnologik talablariga qarab parvarishlash texnologiyasini ishlab chiqish</p> <p>Meva va rezavor meva o'simliklarini o'z vaqtida, ilmiy asoslangan me'yorlar asosida yetishtirish</p> <p>Meva va rezavor mevalarni tayyorlash va qayta ishlash tamoyillariga amal qilish, ishlarni tashkillashtirish, qo'llaniladigan texnik vositalarning texnologik parametrlarini sozlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishda navga xos me'yoriy talablar</p> <p>Meva va rezavor mevalarni qayta ishlash texnologiyasi</p> <p>Meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishda turlar va navlar tasnifi</p>
	B1.03.5-Meva va rezavor meva bog'larining hosildorligi hisobini yuritish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Meva va rezavor meva bog'larining hisobini yuritish</p> <p>2. Yangi barpo qilingan meva va rezavor meva bog'larining hosildorligini hisobga olish</p> <p>3. Meva va rezavor mevalarni guruhlarga taqsimlash</p> <p>4. Meva va rezavor meva bog'larini yaratish</p> <p>5. Yangi barpo qilingan meva va rezavor meva bog'larining hosildorligini oshirish</p>

		Ko'nikmalar:	
		Meva va rezavor meva bog'larining hisobini yuritishning jadval usullarini qo'llash va jurnallarini yuritish	
		Meva va rezavor meva bog'larining hosildorligini hisobga olishda kirim va chiqimni hisobga olish, chiqim sabablarini tahlil qilish	
		Meva va rezavor meva bog'larining hosildorligini hisobga olishda texnologik guruhlarini shakllantirish, meva va rezavor mevalarni guruhlarga taqsimlash	
		Meva va rezavor meva bog'larining hosilini joydan joyga o'tkazish va tashish	
		Meva va rezavor meva bog'larining hosilini joydan joyga o'tkazish va tashishda sanitariya talablariga amal qilish	
		Bilimlar:	
		Meva va rezavor mevalarni identifikatsiya va fiksatsiya qilish talablari	
		Meva va rezavor mevalar hosilini hisobini yuritish usullari	
		Meva va rezavor meva bog'larining hosilini shakllantirish talablari	
		Meva va rezavor mevalar saqlanadigan bino, inshootlarning gigiyenik hamda texnologik parametrlari	
		Meva va rezavor mevalarni tashqi muhitga moslashishi va texnologik zararlardan himoyalash usullari	
		Meva va rezavor mevalarni hosildorligini o'rganish, mevalarni turli zararlanshlardan himoya qilish usullari	
		Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Meva va rezavor mevalarni hosili zararsiz yig'ib olinishi uchun javobgarlik
		B2.5- Meva va rezavor mevalarni ko'paytirish	B2.01.5- Meva va rezavor mevalarni tur va navlarini ko'paytirish
1. Meva va rezavor mevalarni ko'paytirishda urug'idan ekish va payvandlash hisobini yuritish			
2. Meva va rezavor mevalarni ko'paytirishda ishtirok etish			
Ko'nikmalar:			
Meva va rezavor mevalarni ko'paytirishda urug'idan ekish va payvandlash			
Meva va rezavor mevalarni ko'paytirishda urug'idan ekishda urug'larni saqlash			
Yangi yorib chiqqan urug'larni parvarishlash, texnologik parametrlarga mos ravishda saralash			
Bilimlar:			
Meva va rezavor mevalarni ko'paytirish tamoyillari			
Meva va rezavor mevalarning urug'larini saqlashqa qo'yilgan talablar va parvarishlash asoslari			
Meva va rezavor mevalarning anatomiyasi, morfologiyasi, fiziologiyasi, sanitariyasi va gigiyena asoslari			

	B2.02.5- Meva va rezavor mevalarni navlarini yaxshilash	Mehnat harakatlari:
		1. Meva va rezavor mevalar navlarini tanlash va saralash
		2. Meva va rezavor mevalar navlarini ko'paytirish
		Ko'nikmalar:
		Seleksion uslublarga muvofiq meva va rezavor mevalarni tanlash va saralash
		Navi va yuqori mahsuldor mevalar va uzumlarni guruhlarga ajratish
		Meva va rezavor mevalarni ko'paytirishda payvandlash usullarini samarali qo'llash
		Navlarning qimmatli genofondini saqlash
		Meva va rezavor mevalarni ko'paytirishda payvandning o'sish-rivojlanish dinamikasini aniqlash
		Navlarning mahsuldorligini aniqlash va umumiy holatini baholash
		Bilimlar:
		Meva va rezavor meva o'simliklar genetikasi
		Meva va rezavor meva o'simliklarining navlarini tanlash va saralash usullari
		Meva va rezavor meva o'simliklarini ko'paytirishning zamonaviy usullari
		Meva va rezavor meva ko'chatlarining normal parametrlari
Meva va rezavor mevalarining mahsuldorligi, sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Meva va rezavor meva ko'chatlarining rivojlanishi uchun javobgarlik	
	2. Urug'lantirish natijalarini hisobga olish va rasmiylashtirish uchun mas'uliyat	
B3.5- Meva va rezavor mevalarni rivojlanishiga qarab saralash	B3.01.5- Meva va rezavor mevalarining o'sish va rivojlanish hisobini yuritish, mahsuldorligini oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Meva va rezavor mevalarining o'sishi va rivojlanishini kuzatish
		2. Meva va rezavor mevalarining hisobini yuritish
		3. Meva va rezavor mevalarining mahsuldorligini oshirish
		Ko'nikmalar:
		Mahsulot sifatini va miqdor ko'rsatkichlarini baholash va nazorat qilish
		Meva va rezavor mevalarini kuzatish va tahlil qilish
		Meva va rezavor mevalarining mahsuldor nav guruhlari tashkil etish
		Bilimlar:
		Meva va rezavor mevalarining mahsuldor navlarini ko'paytirish texnologiyasi
		Meva va rezavor meva mahsulotlarini sifat darajasi va miqdorini aniqlash usullari
Meva va rezavor mevalarni mahsuldorlik jihatlari		

	B3.02.5-Meva va rezavor meva mahsulotlarini saralash	Mehnat harakatlari:
		1. Meva va rezavor meva mahsulotlarini texnologik guruhlarga ajratish
		2. Meva va rezavor meva mahsulotlarini saqlanadigan joylarni tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Meva va rezavor mevalar mahsuldorligini oshirish, mahsuldorlikning zarur parametrlarini shakllantirish
		Meva va rezavor meva mahsulotlarini saralash
		Meva va rezavor meva mahsulotlarini saqlanadigan joylarini texnologik parametrlarini hisoblash
		Ishlab chiqarishning texnologik xaritalarini tuzish
		Bilimlar:
		Meva va rezavor meva mahsulotlarini saralash tartibi
		Meva va rezavor meva mahsulotlarini biologik va xo'jalik xususiyatlari
	Meva va rezavor meva mahsulotlar sifatini oshirish usullari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	
2. Meva va rezavor mevalarning rivojlanish darajasini to'g'ri baholash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish.		
B4.5- Meva va rezavor mevalarni payvandlash va nazorat qilish	B4.01.5- Payvandlash muddati kelgan ko'chatlarni aniqlash va nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Ko'chatlarni payvandlashni ko'chat po'sti yordamida aniqlash
		2. Ko'chatlarni payvandlashni morfologik belgilar yordamida aniqlash
		3. Ko'chatlarni payvandlashni aniqlash va nazorat qilish
		4. Ma'lumotlarni hujjatlashtirish va hisobot yuritish
		Ko'nikmalar:
		Payvandlash muddati kelgan ko'chatlarni belgi-xususiyatlariga ko'ra tekshirish
		Epidemiologik ma'lumotlarni tahlil qilish
		Payvandlashda vizual baholash davomida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Payvandlash muddati kelgan ko'chatlarda yuz beruvchi tashqi belgilar
Vizual baholash va diagnostika usullari		
Payvandlash muddati kelgan ko'chatlar bilan ishlashda sanitariya-agrotexnologik talablar		

	B4.02.5-Meva va rezavor meva ko'chatlarini payvandlash	Mehnat harakatlari:
		1. Meva va rezavor meva ko'chatlarni payvandlash
		2. Ko'chatlarni payvandlashda fano-servikal urug'lantirish usulidan foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Ko'chatlarni payvandlashda foydalaniladigan asbob-uskunalarni tayyor holga keltirish
		Ko'chatlarni payvandlashda o'simlik organlarining morfa-fiziologik xususiyatlarini baholash
		Payvand ust unuvchanligi va sifatini mikroskopda tekshirish
		Natijalarni elektron shaklida qayd etish
		Bilimlar:
		Meva va rezavor meva ko'chatlarining morfa-fiziologiyasi
		Gigiyena va sanitariya talablari
		Payvand-ust unuvchanligi va sifatini mikroskopda tekshirish talablari
		Ko'chatlarni payvandlashda unuvchanlik dinamikasi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	
1. Jarayonlarini sifatli va belgilangan agrotexnik talablar asosida bajarilishi uchun mas'ul bo'lish, ,		
2. Ish jarayonida mustaqil ravishda payvandlash usullarini tanlash		
3. Natijalarni baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish		
Texnik va/yoki texnologik talab	Elektr yoki akkumulyatorli burama qaychi, suv purkagichlar, mini-traktorlar hamda motokultivatorlar	

Kasbning nomi:	Dala ekinlarini yetishtirish bo'yicha texnik-agronom	
Mashg'ulot nomining kodi:	31421	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Qishloq xo'jaligi, agronomiya, tuproqshunoslik yoki o'simlikshunoslik sohasida kamida 1 yillik umumiy ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> – ochiq havoda (dalalarda, issiqxonalarda) va ba'zan qurg'oqchil yoki og'ir iqlim sharoitlarida ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi; – resurslardan oqilona foydalanish; – stressga chidamlilik va moslashuvchanlik; – tashabbuskorlik va natijaga yo'naltirilganlik; – jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish 	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	Agronom (o'rta malakali)
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5- Dala ekinlarini yetishtirish	D1.01.5- Dala ekinlarini yetishtirishni texnologik xaritalarga muvofiq tashkil etish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Dala ishlarini bajarishning ishchi reja-grafiklarini ishlab chiqish
		2. Xo'jalik va bo'limlarda dala ekinlarini yetishtirishni tashkil etish uchun topshiriqlarni maxsus reja-grafikka muvofiq ishlab chiqish
		3. Xo'jalikning ishchilariga ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish bo'yicha yo'riqnoma berish
		4. Texnologik jarayonlarni bajarish sifatini nazorat qilish va aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish
		5. Hujjatlarni rasmiylashtirish va hisobotlarni tuzish
		Ko'nikmalar:
Texnologik jarayonlarni o'tkazishning ketma-ketligi va taqvim bo'yicha muddatlarini amaldagi ob-havo sharoitlarini hisobga olgan holda belgilash		

		Texnologik xarita asosida har bir texnologik tadbir bo'yicha ishlarning umumiy hajmini bajarish uchun ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni aniqlash
		Bo'limlarda faoliyat yurituvchi ishchi xodimlar uchun bir smenada bajarish lozim bo'lgan ish turlari va hajmini aniqlash
		Xo'jalik ishchilariga topshiriqlar va ularni bajarish bo'yicha aniq yo'riqnomalar berish
		Texnologik jarayonlar sifatini nazorat qilish
		Texnologik tadbirni bajarish uchun tuproqqa ishlov berish va ekish agregatlarini texnik tartibga solish
		Bilimlar:
		Dala ekinlarini ochiq dalada va g'o'za qator orasiga yetishtirish texnologiyalari
		Dala ekinlarni yetishtirish bo'yicha texnologik tadbir o'tkazishning eng maqbul muddatlari
		Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirilgan va qo'l mehnati uchun smenalik ishlash me'yorlari
		Texnologik jarayonlarni texnologik xaritalarga, GOSTlar va reglamentlarga muvofiq holda bajarishning sifatiga qo'yiladigan talablari
		Texnologik jarayonlar sifatini nazorat qilish usullari
		Texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun mashina va mexanizmlardan foydalanishga qo'yilgan talablar
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari
	D1.02.5- Vegetatsiya davomida o'simliklarning rivojlanish jarayonini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Dala ekinlarining vegetatsiya davri davomida o'simliklar rivojlanishini nazorat qilish dasturini ishlab chiqish
		2. O'simliklar rivojlanishining fenologik fazalarini aniqlash asosida texnologik tadbirlar o'tkazishning taqvim bo'yicha muddatlarini belgilash
		3. Dala ekinlarining holati, stress sharoitiga chidamliligi, barqaror o'sishini oshirish uchun baholash
		4. Vegetatsiya davri davomida dala ekinlarning qator oralariga ishlov berishni nazorat qilish
		5. Dala ekinlarni sug'orish muddati va me'yorlarini aniqlash, sug'orishda suv va resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash va monitoring o'tkazish
		6. O'simliklarni begona o'tlardan himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun begona o'tlarning turlari bo'yicha tarkibi va ekin maydonlarining begona o'tlar bilan qoplanganlik darajasi, tuproqda begona o'tlar urug'larining zaxirasini aniqlash

		7. O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida zararkunandalar turlari bo'yicha tarkibi, ularning populyatsiyalarining zichligi, zararlilik va o'simliklarga ziyon keltirish darajasini aniqlash
		8. O'g'itlarni qo'llash tizimini takomillashtirish maqsadida o'simliklarni majmuaviy holda tashxislash
		9. Vegetatsiya davri davomida o'simliklarning rivojlanishini nazorat qilish jarayonida olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish
		10. Tahlil asosida o'simlikchilikda texnologik jarayonlarni taqsimlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Dala ekinlarning holati, ekin maydonlarining fitosanitariya holati, tuproq holatini nazorat qilish
		Vegetatsiya davri davomida o'simliklarning rivojlanishini nazorat qilishning eng maqbul muddatlarini aniqlash
		O'simliklarning morfologik belgilarini tahlil qilish asosida rivojlanishining fenologik fazalarini aniqlash
		Dala ekinlarining hosilni yig'ib olishga tayyorligini tahlil qilish
		Yig'im-terim ishlarini rejalashtirish uchun hosilni yig'ib olishdan oldin dala ekinlarining hosildorligini aniqlash
		Dala ekinlarining holatini baholashning sifat va miqdor usullaridan foydalanish
		Madaniy o'simliklar va begona o'tlarning guruhlari va turlarini ularning holati va tashqi belgilariga ko'ra identifikatsiyalash
		Dala ekinlarning begona o'tlar bilan qoplanganlik darajasini vizual va miqdoriy usullar bilan aniqlash
		Dala ekinlarning zararkunandalar va kasallik bilan zararlanganligini identifikatsiyalash
		Zararkunandalar va kasalliklarning tarqalganlik darajasi, zararlilik va ziyon keltirganlik darajasini aniqlash
		Dala sharoitida tuproqni va o'simliklarni tashxislashda maxsus uskunalardan foydalanish
		Bilimlar:
		Qishloq xo'jaligi o'simliklarning holati, tashqi muhit omillarining ta'siri va o'tkazilayotgan agrotexnik tadbirlar o'rtasidagi sabab-oqibat-aloqa bog'lanishlari
		Dalalar tarixi to'g'risida ma'lumotlarning elektron bazasini yuritish tartibi
		Rivojlanishning turli fazalarida o'simliklar rivojining fenologik fazalari va o'simliklarning morfologik belgilari

		Dala ekinlarning yig'im terim ishlarini o'tkazish jarayonida rivojlanish fazalari
		Dala ekinlarning yetilish davridagi o'ziga xos biologik xususiyatlari
		Ekinlarning umumiy holati, dalada unib chiqqanlik holati, turishining siyrakligi (zichligi), kuzgi va ko'p yillik ekinlar qishlashining umumiy holatini aniqlashning vizual va miqdoriy usullari
		Madaniy va begona o'simliklarning morfologik belgilari
		Dala ekinlari maydonlarida begona o'tlar o'sish-rivojlanish xususiyatlari
		Dala ekinlarining zararkunanda va kasalliklari, ularning zarar keltirish darajasi
		Dala ekinlarining begona o'tlar, kasalliklar va zararkunandalarining hisobini olish usullari
		O'simliklarning rivojlanishi jarayonida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish tartibi
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari
		Mas'uliyat va mustaqillik:
2. Zarurat tug'ilganda, muammolarni bartaraf etish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish		
D2.5- Urug' ekish	D2.01.5- Yerni ekishga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Kuzgi dala ekinlari uchun yerni ekishga tayyorlash
		2. Bahorgi dala ekinlari uchun yerni ekishga tayyorlash
		3. Dala ekinlarini takroriy ekin sifatida yetishtirish uchun yerni ekishga tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Dala ekinlari uchun yerga asosiy ishlov berish agregatlarini tanlash va ishga tayyorlash
		Ekishdan oldin tuproqqa begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llash
		Bilimlar:
	Donli ekinlar uchun yerga asosiy ishlov berish usullari, muddatlari, me'yorlari	
	Ekishdan oldin tuproqqa begona o'tlarga qarshi qo'llaniladigan gerbitsid turlari	
	D2.02.5- Urug'ni ekishga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Urug'larni ekishdan oldin dorilash
		2. Urug'larni turli zararlanishga qarshi qo'shimcha dorilash
		Ko'nikmalar:
Urug'larni ekishdan oldin dorilash jarayonida maxsus beton va plyonkali hovuzchalardan foydalanish		
Urug'larni dorilash jarayonida ishlatiladigan turli preparatlar va asbob-uskunalardan foydalanish		

		Bilimlar:
		Urug'larni ekishdan oldin dorilash usullari, muddatlari va me'yorlari
		Urug'larni ekishdan oldin dorilash jarayonida ishlatiladigan preparatlar, asbob-uskunalarining turlari va ulardan foydalanish tartibi
	D2.02.5- Urug'ni ekish	Mehnat harakatlari:
		1. Urug'larni maxsus maydonchalardan mashinalarga yuklash
		2. Urug'larni don seyalkalariga solish, ekish agregatlarini rostdash
		3. Urug'larni ekish
		Ko'nikmalar:
		Urug'larni mashinalarga ortish va seyalkalarga solish va ekish
		Urug'larni mashinalarga ortish va seyalkalarga solish va ekish jarayonida foydalaniladigan texnika va agregat turlaridan foydalanish
	Bilimlar:	
	Urug'ni ekish jarayonini amalga oshirish uchun maqbul ekish chuqurligi, tuproq namligi, ekish usuli, me'yori va muddatlari	
	Urug' ekish jarayonida foydalaniladigan texnika va agregat turlari hamda ulardan foydalanish tartibi	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik
D3.5- Ekinlarni parvarishlash	D3.01.5- Qatqaloqqa qarshi kurash	Mehnat harakatlari:
		1. Qatqaloqqa qarshi kurashish uchun zarur texnikalarni ishga tayyorlash
		2. Maysalanish davrida qatqaloqqa qarshi boronalash
		Ko'nikmalar:
		Qatqaloqqa qarshi kurashish uchun zarur texnikalarni sozlash va ulardan samarali foydalanish
		Maysalanish davrida qatqaloqqa qarshi sifatli boronalash
		Bilimlar:
	Qatqaloq hosil bo'lish sabablari, unga qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari	
	Qatqaloqqa qarshi kurashish muddatlari, usullari va texnologiyasi	
	D3.02.5- Yaganalash	Mehnat harakatlari:
		1. Ekin maydonlarida qiyg'os unib chiqqan ko'chatlarni yaganalash
2. Ekin maydonlaridagi ko'chatlarni qo'lda yaganalash		
Ko'nikmalar:		
Turli ekish usullari bo'yicha ko'chatlarni yaganalash Yaganalashda haqiqiy ko'chat qalinligini belgilash		
Bilimlar:		

		Turli ekish usullari bo'yicha ko'chatlarni yaganalash tartibi
		Navlar bo'yicha yaganalash usullari va tartibi
		Ekish muddatlariga qarab yaganalashni o'tkazish jarayonini tashkil etish tartibi
	D3.03.5-Qator oralariga ishlov berish	Mehnat harakatlari:
		1. Dala ekinlari qator oralarini yumshatish
		2. Dala ekinlari qator oralarini chuqur yumshatish
		Ko'nikmalar:
		Dala ekinlari qator oralariga ishlov berishda texnikalardan foydalanish
		Dala ekinlari qator oralariga ishlov berishning zamonaviy usullaridan foydalanish
		Dala ekinlari qator oralariga ishlov berish
		Bilimlar:
		Dala ekinlari qator oralariga ishlov berishning ahamiyati
		Dala ekinlar qator oralariga ishlov berish soni va muddatlari, turlari, usullari
	Dala ekinlar qator oralariga ishlov berishni o'tkazish texnologiyasi	
	D3.04.5-Ekinlarni o'g'itlar bilan oziqlantirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'g'itlarning qo'llaniladigan ishchi miqdorini tayyorlash
		2. O'g'itlar bilan oziqlantirish uchun kerakli texnika va asbob-uskunalarni sozlash
		3. O'simliklarni o'g'itlar bilan oziqlantirish
		Ko'nikmalar:
		O'g'itlar bilan oziqlantirish uchun kerakli miqdorni tayyorlash
		O'g'itlar bilan oziqlantirishda texnika va asbob-uskunalardan foydalanish
O'g'itlar bilan oziqlantirishni samarali amalga oshirish		
Bilimlar:		
O'g'itlar bilan oziqlantirishning ahamiyati		
O'g'itlar bilan oziqlantirish muddatlari		
O'g'itlar bilan oziqlantirish usullari va me'yorlari		
O'g'itlar bilan oziqlantirish texnologiyasi		
D3.05.5-Ekinlarni sug'orish	Mehnat harakatlari:	
	1. Dala ekinlarini sug'orish	
	2. Keng qatorlab ekiladigan dala ekinlari uchun dalani sug'orishga tayyorlash	
	3. Sug'orish texnikalarini rostlash va ishga tayyorlash	
	4. Keng qatorlab ekiladigan dala ekinlarni sug'orish	
	Ko'nikmalar:	
Dala ekinlarning holatiga qarab suvga bo'lgan ehtiyojini aniqlash		

		Dala ekinlarni sug'orish muddati, me'yorlari va usullarini belgilash
		Dala ekinlarni sug'orishda zarur texnika va uskunalardan samarali foydalanish
		Dala ekinlarni sug'orish jarayonini xavfsiz tashkil etish
		Bilimlar:
		Dala ekinlarning biologik jihatdan namlikka talabi
		Dala ekinlarni sug'orish muddatlari, usullari va me'yori
		Dala ekinlarni sug'orishda foydalaniladigan inshoot, texnika va asbob-uskuna turlari va ishlash tamoyillari
		Dala ekinlarni sug'orish texnologiyasi
	D3.06.5- Stimulyatorlarni qo'llash	Mehnat harakatlari:
